

# KASBIY STANDART

## Metall va temir-beton konstruksiyalari montajchisi

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

### I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Temirbeton konstruksiyalar yig'uvchisi", "Po'lat va temir beton konstruksiyalar montajchisi", "Metall konstruksiyalarni yig'ish bo'yicha chilangar" va "Qurilish-montaj ishlari ustasi" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

Shuningdek, mazkur standart tashkilotlarda kadrlar boshqaruvi tizimini takomillashtirish, mehnat vazifalarini belgilash, malaka talablarini aniqlash va sertifikatlash ishlarini amalga oshirishda asosiy me'yoriy manba sifatida xizmat qiladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb kartasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo‘yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o‘z ichiga olgan muayyan kasb to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan sohasida zarur bilim, mahorat, ko‘nikma, ish staji, malaka darajasi, mehnatning mazmuni, sifati va shart-sharoitlari, ishga munosabat va xulq-atvorga qo‘yilgan minimal talablarni belgilaydigan hujjat;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo‘yicha tizimlashtirilgan ro‘yxati;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo‘lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo‘llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

ko‘nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar majmuasi bo‘lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodim yoki ishga (kasbga) talabgorning tayyorgarligi va ko‘nikmalari darajasi bo‘yicha mehnat funksiyalarining murakkabligi, ularni mustaqil bajarish va natijalarga mas‘uliyati parametrlari bo‘yicha belgilanadigan toifalangan talablar majmuasi;

mehnat funksiyasi – mehnat natijasiga erishishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq mehnat harakatlari majmuasi;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat faoliyati turi – kasbiy faoliyat sohasining ajralmas qismi bo‘lib, muayyan mehnat vazifalari hamda ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarning yaxlit majmuasini ifoda etadi;

rasmiy ta‘lim – davlat tomonidan tan olingan davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejali ta‘lim;

Ishchi (ekspert) guruhi – bu kasbiy standartni ishlab chiqish, tahlil qilish va takomillashtirish jarayonida ishtirok etuvchi, sohaviy bilim va tajribaga ega mutaxassislardan tashkil topgan guruh.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son Qarori (IFUT-2).

Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT- Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi

SHHV - shaxsiy himoya vositalari

## II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Metall va temir-beton konstruksiyalari montajchisi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Bino va inshootlarni qurish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, restavratsiya qilish va qayta tiklashda beton va metall konstruksiyalarni o'rnatish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	F. Qurilish 43- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari. 43.24, 43.24.0 Boshqa qurilish-montaj ishlari 43.4 Binolarni qurishda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Po'lat va temir beton konstruksiyalarini montaj qilish bo'yicha xodimlarning tegishli ish funksiyasini bajarish uchun zarur bo'lgan malakasiga qo'yiladigan talablar aks ettirilgan.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	<b>Kasblar kodi va nomi:</b>	<b>TMR dagi malaka darajasi:</b>
		71140 — Temirbeton konstruksiyalar yig'uvchisi	2
		71140013 — Po'lat va temir beton konstruksiyalar montajchisi	3
		72141001 — Metall konstruksiyalarni yig'ish bo'yicha chilangar	3
		71140 — Qurilish-montaj ishlari ustasi	5

### III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	71140 Temir beton konstruksiyalar yig'uvchisi	A1.2	Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni o'rnatishda bir qator tayyorgarlik va yordamchi ishlarni bajarish	A1.01.2	Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni o'rnatishdan oldin tayyorgarlik ishlarini olib borish
				A1.02.2	Montaj qilish joyida konstruksiyalarni yig'ish, taxlil qilish yoki taxlash, shuningdek xomashyo va materiallarni, jihoz va asbob uskunalarni tanlash
				A1.03.2	Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni yig'ish va o'rnatishda yordamchi ishlarni bajarish
2	71140013 Po'lat va temir beton konstruksiyalar montajchisi	B1.3	Binolar va inshootlarning konstruksiyalarini o'rnatishga tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish	B1.01.3	Binolar va inshootlarning po'lat va temir-beton konstruksiyalarini o'rnatishga tayyorlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish
				B1.02.3	Binolar va inshootlarning po'lat va temir-beton konstruksiyalarini montaj o'rnatish ishlarini amalga oshirish
				B1.03.3	Binolar va inshootlarning murakkab konstruksiyalarini motaj qilish ishlarni bajarish
3	72141001 Metall konstruksiyalarni yig'ish bo'yicha chilangar	D1.3	Ish o'rnini tashkil qilish hamda asbob- uskunalarni tanlash va samarali ishlatish	D1.01.3	Ishchilarni yo'riqnomadan o'tkazish va vazifalarini belgilash hamda metall-konstruksiyalar yig'ishda ishlatiladigan asbob-uskunalarni tanlash
				D1.02.3	Ish o'rnida ishchilarning havfsiz harakatlanishini belgilash
		D2.3	Metall-konstruksiyalarni yig'ish montaj qilish va ta'mirlash	D2.01.3	Metall-konstruksiyalarini o'rnatish
				D2.02.3	Metall-konstruksiyalarini o'rnatish uskunalarini ta'mirlash
4	71140 Qurilish-montaj ishlari ustasi	E1.5	Qurilish montaj ishlarini tashkil etish	E1.01.5	Qurilish montaj ishlarini tashkil etishga tayyorgarlik ishlari
				E1.02.5	Qurilishi maydonida qurilish-montaj ishlarini bajarilishini jadal (operativ) boshqarish
		E2.5	Qurilish va montaj ishlarini amalga oshirish va faoliyatini boshqarish	E2.01.5	Ob'yektlarni qurilish va montaj ishlariga tayyorlashni boshqarish
				E2.02.5	Qurilish-montaj ishlarida konstruksiyalarning o'rnatilishi (montaj) jarayonini operativ boshqarish

#### IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Temirbeton konstruksiyalar yig'uvchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	71140	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	<p>Ustoz rahbarligida amaliy o'quv jarayonidan o'tgan, kamida 3-6 oylik ish amaliyotiga ega bo'lishi kerak.</p> <p>Qurilishda, xususan, metall bilan ishlashda xavfsizlik texnikasini yaxshi bilishi.</p> <p>Balandlikda ishlashda tajriba va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish ko'nikmasi.</p> <p>Chizmalarni o'qish, o'lchov uskunalari va maxsus asboblardan ishlash tajribasi.</p> <p>Gidroizolyatsiya, payvandlash, qirra tayyorlash, qoplash, montajlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar talab etilmaydi.</p>	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak.</p> <p>Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi.</p> <p>Texnik hujjatlar va chizmalarni o'qish qobiliyati.</p> <p>O'lchov va hisoblash qobiliyati.</p> <p>Qurilish asboblari va uskunalaridan foydalanish mahoratlari.</p> <p>Metall materiallarga ishlov berish qobiliyati.</p> <p>Montaj va izolyatsiyalash ishlarini amalga oshirish qobiliyati.</p> <p>Muammoli holatlarni hal qilish qobiliyati.</p> <p>O'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish.</p> <p>Belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish.</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiena, yong'in va Elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.</p> <p>O'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish.</p> <p>Jamoa bilan inoq ishlash.</p> <p>O'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	<p>1) umumiy o'rta ta'lim</p> <p>2) tayanch o'rta ta'lim</p>	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2- Po'lat va temir- beton konstruksiyalarni o'rnatishda bir qator tayyorgarlik va yordamchi ishlarni bajarish	A1.01.2- Po'lat va temir- beton konstruksiyalarni o'rnatishdan oldin tayyorgarlik ishlarini olib borish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Ish joyini po'lat va temir-beton konstruksiyalarni o'rnatishga tayyorlash bo'yicha ishlarni bajarish va xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etish.
		2. Po'lat, temir-beton konstruksiyalarni o'rnatish uchun yuk ko'tarish moslamalarini ishga tayyorlash va texnik xizmat ko'rsatish.
		3. Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni montaj joylarini mahkamlash (o'rnatish, qisish va mahkamlash).
		3. Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni yig'ishda o'ziyurar kranlarni o'rnatish uchun shpal asosini qurish.
		4. Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni yig'ish uchun o'rnatilgan ko'targichlar va qo'lda tutqichli mahkamlash, ochish va sinovdan o'tkazish.
		5. Konstruksiya o'rnatilishi kerak bo'lgan joylarga belgi qo'yish (razmetka qilish).
		6. Asos (fundament) holatini ko'zdan kechirish, zarurat bo'lsa, to'g'rilash ishlarini amalga oshirish.
		7. Qurilish maydonidagi ish joyini tozalash, konstruksiyalar uchun platformalarni tayyorlash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Montaj ishlari uchun asbob-uskuna, jihoz, vosita va buyumlarini tanlash.
		Ish turiga qarab belgilanishi bo'yicha qo'l va mexanizatsiyalashtirilgan asboblari qabul qilish.
		Montaj qilinishi kerak bo'lgan joyni tekshirish va tozalash.
		Konstruksiya turini va joylashtirish tartibini aniqlash.
		Qo'lda va mexanik uskunalarni (lom, montaj kaliti, troslar) to'g'ri tanlash va tayyorlash.
		Asosiy elementlar uchun tayanch joylarni (podkladka, vremyanka) tayyorlash.
		Krani yordamida ko'tarish vositalarini tekshirish va to'g'ri o'rnatish
		Po'lat yoki temirbeton elementlarini to'g'ri va xavfsiz joylashtirish.
		<b>Bilimlar:</b>
Uskunalar va konstruksiyalarni o'rnatish joylarini aniqlash.		
Loyihaviy va konstruktiv chizmalarni, montaj sxemalarini o'qish va talqin qilish.		
Qurilish maydonida o'lchov ishlarini olib borish.		
Asoslar va tayanch qismlarni tekshirish va tayyorlash (fundament holatini baholash).		

		<p>Uskunalar, asboblardan va kranlar tayyorligini tekshirish.</p> <p>Konstruksiya elementlarining sifatini va mosligini nazorat qilish.</p> <p>Qo'llaniladigan montaj vositalarini (boltlar, gaykalar, zaxvatlar, payvandlash uskunalari) tekshirish va tayyorlash.</p> <p>Kran va maxsus mexanizmlarni ishga tayyor holatga keltirish.</p> <p>Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish</p>
	<p>A1.02.2- Montaj qilish joyida konstruksiyalarni yig'ish, taxlil qilish yoki taxlash, shuningdek xomashyo va materiallarni, jihaz va asbob uskunalarni tanlash</p>	<p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Chizmalar asosida konstruksiyalarni belgilangan joyga to'g'ri va aniq joylashtirish.</li> <li>2. Montajga tayyorlash uchun bir necha qismdan iborat elementlarni yig'ib tayyor holga keltirish.</li> <li>3. Birikmalarni (tugunlarini) boltlar, gaykalar, payvand yoki maxsus tutashmalar yordamida mustahkamlash.</li> <li>4. Montaj qilingan konstruksiyaning himoya vositalari bilan qoplash (namlikdan himoya).</li> <li>5. Boltli birikmalarni o'rnatish va mustahkamlash.</li> <li>6. Ankerlar va tutash tiqinlarni montaj qilish.</li> <li>7. Ish jarayonida xavfsizlik qurilmalari (tayanchlar, arqonlar, kamarlar)dan foydalanish.</li> <li>8. Kran va mexanizmlar bilan ishlayotganda belgilangan xavfsiz masofaga rioya qilish.</li> </ol> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Konstruksiya elementlarining o'lchamlari, joylashuvi va birikmalarini aniqlash.</p> <p>Montaj, konstruksiya va uzellar chizmalarini tushunish.</p> <p>Boltli, gaykali va payvandlash usullari bilan konstruksiyalarni aniq joylashuvini ta'minlash va mahkamlash.</p> <p>Ankerlar, tiqinlar va mustahkamlovchi detallarni o'rnatish.</p> <p>Kran balka, payvandlash apparati va boshqa montaj vositalaridan xavfsiz va samarali foydalanish</p> <p>Avariylarning oldini olish va favqulodda holatlarda harakat qilish ko'nikmalari</p> <p>Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish.</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Po'lat va temirbeton konstruksiyalarni yig'ish va o'rnatish bosqichlari.</p> <p>Konstruksiya turlari (fermalar, ustunlar, plita va to'sinlar) va ularning o'zaro bog'lanishi</p> <p>Montajda ishlatiladigan usullar (boltlash, payvandlash, ankerlash).</p> <p>Montajga ta'sir qiluvchi tashqi omillar (namlik, harorat, yuklama) antikorroziya vositalari va himoyalash usullari</p>



		Montaj, uzal va detallash chizmalarini talqin qilish va montaj sxemalari va ketma-ketligini tushunish.
		Montaj nuqtalarini aniqlash va to'g'ri joylashtirish usullari.
		Balandlikdagi ishlar va og'ir yuklar bilan bog'liq xavflar.
		Favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish tartibi.
A1.03.2- Po'lat va temir- beton konstruksiyalarni yig'ish va o'rnatishda yordamchi ishlarni bajarish		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Qurilish maydonini montaj ishlariga mos holatga keltirish
		2. Montaj qilinishi kerak bo'lgan joylarni chang, qoplama, bo'yoq, qo'shimcha materiallardan tozalash.
		3. O'lchov jarayonida joylarni belgilab olish.
		4. Temir beton va po'lat konstruksiya qismlarini montaj joyiga olib kelish.
		5. Elementlarni montaj ketma-ketligiga muvofiq tartib bilan taxlash.
		6. Montaj uchun kerakli asbob va jihozlarni ustalarga o'z vaqtida etkazib berish va to'g'ri ulash.
		7. Bolt, gayka, shaybalarni mahkamlash, ustunlar konstruksiyalarni o'rnatishda yordam berish
		8. Baland joydagi ustalarni bog'lash vositalari bilan ta'minlash.
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Qo'l asboblari va montaj asboblari bilan xavfsiz va to'g'ri foydalanish.
		Oddiy konstruksiyaviy chizmalarni tushunish va ularga muvofiq harakat qilish
		Belgilar, o'lchamlar va yo'nalishlarni to'g'ri anglash.
		Jamoa bilan muvofiqlikda ish olib borish.
		Yuk ko'tarish, siljitish va o'rnatishda xavfsiz masofalarni saqlash
		Qoliplar, stropalar, troslar, domkratlar va boshqa yordamchi jihozlar bilan ishlash.
		Balandlikda ishlashda xavfsizlik kamarlari, bosh kiyimlar, qo'lqoplardan to'g'ri foydalanish.
		<b>Bilimlar:</b>
		Temir beton va po'lat konstruksiya turlari, ularning asosiy qismlari (balka, ustun, plita).
		Konstruksiyalarning quvvat, barqarorlik va yuk ko'taruvchanlik xususiyatlari.
	Stropirovka, kranning ishlash prinsipi, yuk ko'tarish uskunalari (tros, strop, blok);	
	O'lchov asboblari va montaj asboblari tuzilishi va ishlatilishi.	
	Konstruksiyaviy chizmalar va montaj sxemalarini tushunish.	

		Bolt, gayka, anker, shayba va boshqa biriktiruvchilarning turlari va qo'llanishini.
		Armatura, beton va po'lat materiallarining xossalari va qo'llanish sohalari.
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Balandlikda, elektr uskunalari bilan va yuqori xavfli muhitda ishlayotganda shaxsiy va jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik
		2. Shaxsiy himoya vositalarini (belbog', ko'zoynak va h.k.) to'g'ri tanlash, tekshirish va foydalanish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati
		3. Xavfsiz ish sharoitlarini ta'minlash maqsadida qurilish maydonidagi ehtiyot choralariga to'liq rioya etish
		4. O'zining va atrofidagi xodimlarning xavfsizligini ta'minlashda tashabbuskorlik ko'rsatish va favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish qobiliyati
		5. Har bir ish jarayonida xavf omillarini mustaqil baholash va ularni bartaraf etish bo'yicha echimlar taklif qilish
6. Yaxshi o'rgatilgan ish sharoitidagi o'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik		
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>		<p>Temirbeton konstruksiyalar chizmalar asosida aniq o'lchamda kesish va shakllantirilishi shart.</p> <p>Maxkamlash va izolyatsiya ishlari standartlarga muvofiq, germetik va mustahkam bajarilishi zarur.</p> <p>Asbob-uskunalar tekshirilgan va yaroqli holda foydalanilishi kerak.</p> <p>Barcha jarayonlarda shaxsiy himoya vositalari majburiy tarzda qo'llanilishi lozim.</p> <p>Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ishlari rejali ravishda va texnik talablarga asosan olib borilishi shart.</p>

Kasbning nomi:	Po'lat va temir beton konstruksiyalar montajchisi
Mashg'ulot nomining kodi:	71140
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	<p>Qurilishda, xususan, po'lat va temir beton konstruksiyalar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasini yaxshi bilishi.</p> <p>Balandlikda ishlashda tajriba va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish ko'nikmasi.</p> <p>Chizmalarni o'qish, o'lchov uskunolari va maxsus asboblardan foydalanish tajribasi.</p> <p>Gidroizolyatsiya, payvandlash, qirra tayyorlash, qoplash, montajlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar.</p>
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi.</p> <p>Texnik hujjatlar va chizmalarni o'qish qobiliyati.</p> <p>O'lchov va hisoblash qobiliyati.</p> <p>Qurilish asboblari va uskunalaridan foydalanish mahoratlari.</p> <p>Po'lat va temir beton konstruksiyalarga ishlov berish qobiliyati.</p> <p>Montaj va izolyatsiyalash ishlarini amalga oshirish qobiliyati.</p> <p>Muammoli holatlarni hal qilish qobiliyati.</p> <p>O'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish.</p> <p>Belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish.</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.</p> <p>O'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish.</p> <p>Jamoa bilan inoq ishlash.</p> <p>O'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.</p>
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	<ol style="list-style-type: none"> <li>1) boshlang'ich professional ta'lim</li> <li>2) o'rta maxsus ta'lim</li> <li>3) umumiy o'rta ta'lim</li> </ol>
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	Kasbiy standartlar reestrda mavjud.
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b> <b>Kasbning nomi:</b>

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
<p>B1.3- Binolar va inshootlarning konstruksiyalarini o'rnatishga tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish</p>	<p>B1.01.3- Binolar va inshootlarning po'lat va temir beton konstruksiyalarini o'rnatishga tayyorlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish</p>	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Binolarning po'lat va temir beton konstruksiyalarini vaqtincha mahkamlashda ish joyini vazifa va xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etish.
		2. Montaj qilinuvchi maydonni tozalash va xavfsiz holatga keltirish.
		3. Qolip, ustun va plita konstruksiyalari uchun asos (fundament) ustini tekshirish va tayyorlash.
		4. Qo'llaniladigan uskunalarning sozligini va butligini tekshirish.
		5. Qo'l asboblari, stroplar, boltlar, ankerlar, kran stropirovka jihozlarini o'rnatish jamlash va tekshirish.
		6. Konstruksiyalar joylashtiriladigan nuqtalarni belgilash (razmetka) ishlarini amalga oshirish.
		7. Tekshiruvchi shaxslar yoki muhandislar bilan hamkorlikda montaj joyini qabul qilish.
		8. Tayyorgarlik jarayonida mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish.
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Bino va inshootlarning metall, yig'ma-beton va temir beton konstruksiyalarini o'rnatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish uchun konstruksiyalarni o'rnatish, yig'ish uskunalari va mahkamlagichlarni tayyorlash.
		Yordamchi ishlarni bajarish uchun qo'llaniladigan qo'lda va mexanizatsiyalashgan asboblarning yaroqliligini aniqlash.
		Qo'l asboblari (bolg'a, ruletka, lom) bilan ishlash.
		Anker boltlarini va tayanch detallarini o'rnatish, gaykalar va shaybalarni to'g'ri tanlash.
		Konstruksiya elementlarini qabul qilish, to'g'ri ajratish va vaqtinchalik joylashtirish.
		Elementlarni kran yordamida joyiga etkazish va xavfsiz transportirovka qilish.
		Qolip, ustun va plita uchun tayanchlarni tayyorlash va o'rnatish.
		Balandlikda ishlash, og'ir elementlar bilan muomala qilishda xavfsizlik qoidalarini amalga oshirish.
		Shaxsiy himoya vositalaridan (kaska, kamar, qo'lqop) to'g'ri foydalanish.
Po'lat va temir-beton konstruksiyalarini vaqtincha mahkamlash bo'yicha ishlarni bajarish uchun mahkamlagichlar va yig'ish moslamalarini o'rnatish.		
<b>Bilimlar:</b>		

<p style="text-align: center;">B1.02.3- Binolar va inshootlarning po'lat va temir- beton konstruksiylarini montaj o'rnatish ishlarini amalga oshirish</p>	<p>Ishlarni bajarishda loyihaga muvofiq binolar va inshootlarning po'lat va temir beton konstruksiylarini vaqtincha mahkamlash bo'yicha ishlarni bajarish.</p>
	<p>Po'lat va temir beton konstruksiylarni vaqtincha mahkamlash bo'yicha ishlarni bajarishda qo'llaniladigan asosiy armatura va yig'ish uskunalari va qurilmalari turlari.</p>
	<p>Beton va po'lat konstruksiylarni yig'ish va o'rnatish jarayonlari</p>
	<p>Og'ir yuklar bilan ishlashda xavfsizlik choralari.</p>
	<p>Po'lat va temir beton konstruksiylarni vaqtincha mahkamlashda qo'llaniladigan qurilish konstruksiylarini o'rnatish va echish usullari.</p>
	<p>Qurilish maydonchasida montaj ishlarini bajarishda mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi va xavfsizlik talablari.</p>
	<p>Qurilish maydonchasidagi baxtsiz hodisada jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish qoidalari.</p>
	<p><b>Mehnat harakatlari:</b></p>
	<p>1. Binolar va inshootlarning temir-beton konstruksiylarini o'rnatishda ish joyini tozalash va xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etish.</p>
	<p>2. Montaj qilinadigan konstruksiya elementlarini vizual tekshirish (defekt, shikastlanish bo'yicha).</p>
	<p>3. O'lchamlarni aniqlash va belgilash (razmetka ishlari).</p>
	<p>4. Kraning harakat maydonini tayyorlash va signalchi bilan bog'lanish tizimini ta'minlash.</p>
	<p>5. Kran, tallar va lebyodka kabi mexanizmlar yordamida elementlarni ko'tarish va joylashtirish o'rnatish.</p>
	<p>6. Har bir og'ir elementni ko'tarish va tushirishda aniq ish harakatlari.</p>
<p>7. Tomlar va pollar uchun yig'ma temir-beton panellar va plitalarni o'rnatish.</p>	
<p>8. Qo'lda va mexanizatsiyalashgan vositalar yordamida yig'ma beton va temir betonni ko'tarish, ko'chirish va tushirish.</p>	
<p>9. Temir beton konstruksiylarining tashqi birikmalari uchun sintetik materiallar bilan issiqlik izolatsiyasini o'rnatish.</p>	
<p>10. Balandlikda ishlashda himoya vositalaridan (tross, qo'lqop, kamar) foydalanish.</p>	
<p><b>Ko'nikmalar:</b></p>	
<p>Yig'ma beton va temir-beton konstruksiylarni o'rnatishda qo'llaniladigan qo'lda va</p>	

		mexanizatsiyalashgan asboblarning xizmatga yaroqliligini aniqlash.
		Belgilash (razmetka) ishlarini to'g'ri va aniq bajarish.
		Mexanik birikmalarni (bolt, gayka, anker, qopqoqlar) to'g'ri va xavfsiz o'rnatish.
		Yig'ma beton konstruksiyalarni balandlikda va cheklangan joylarda ko'tarish, tushirish va o'rnatish.
		Yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatishda vaqtinchalik arqon va tirgaklarni mahkamlash va olib tashlash.
		Signal berish va jamoa bilan hamkorlikda xavfsiz ish yuritish.
		Himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish (kaska, kamar, tros, qo'lqop).
		Qurilish maydonchasidagi baxtsiz hodisasi ro'y berganda jabrlanuvchilarga birinchi yordam ko'rsatish.
		Qurilish maydonchasida montaj ishlarini olib borishda mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi va xavfsizlik talablariga rioya qilish.
		<b>Bilimlar:</b>
		Yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni yig'ish va konstruksiyalarni o'rnatish usullari.
		Yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarning elementlarini ulash va mahkamlash usullari.
		Yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarning bo'g'inlarini germetik qilish va ularni yopishtirish usullari.
		Og'ir konstruksiyalarni ko'tarish va tushirish uchun yig'ma beton va temir beton konstruksiya-larni o'rnatishda ishlatiladigan tutqichlarning turlari.
		Yig'ma beton konstruksiyalarni balandlikda va cheklangan joylarda ko'tarish, tushirish va o'rnatish qoidalari.
		Yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni demontaj qilish xususiyatlari va tartibi
		Qurilish maydonchasida montaj ishlarini bajarishda mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi va xavfsizlik talablari.
	B1.03.3- Binolar va inshootlarning murakkab konstruksiyalarini motaj qilish ishlarni bajarish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Murakkab mas'uliyat darajasidagi metall konstruksiyalarni o'rnatishda ish joyini vazifa va xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etish.
		2. Loyihaga muvofiq asos (fundament) ustidagi tayanch konstruksiya joylashadigan joyni tekshirish va tayyorlash.

		3. Yukni muvozanatda, xavfsiz ko'tarish va joyiga olib o'rnatish.
		4. Uskuna va qurilmalar yordamida elementlarni to'g'ri ulash payvandlash yoki anker orqali bir-biriga mustahkam biriktirish ishlarini amalga oshirish.
		5. Kamchiliklarni aniqlash, zarur holda tuzatish.
		6. Beton va temir-beton konstruksiyalarni o'rnatishdan keyin izolyatsiyalash ishlarini bajarish.
		7. Boshqa mutaxassislar (payvandchi, montajchi, elektrik) bilan hamkorlikda ishlash.
		8. Balandlikda ishlashda muhofaza vositalaridan (arqan, tasma, shlem, straxovka) foydalanish.
		9. Og'ir yuklar bilan ishlashda maxsus signallar, ishoralardan foydalanish.
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Metall, po'lat, yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatishda qo'llaniladigan mexanizatsiyalashgan asboblarning xizmatga yaroqliligini aniqlash.
		Loyiha va montaj chizmalarini tushunish va unga amal qilish.
		Konstruksiya elementlarini joyiga to'g'ri keltirish uchun aniq o'lchamlari, joylashuvi, payvand joylari va o'rnatilishini belgilab olish.
		Balandlikda va og'ir konstruksiyalar bilan xavfsiz ishlash usullarini bilish.
		O'rnatilgan konstruksiyalarning to'g'ri o'rnatilganini aniqlash.
		Kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish.
		Mehnat muhofazasi vositalari (kaska, arqon, jamlovchi vositalar)dan to'g'ri foydalanish.
		Qurilish maydonchasidagi baxtsiz hodisada jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish.
		<b>Bilimlar:</b>
		Metall, po'lat, yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarishda ishlatiladigan asosiy tayanch va yig'ish uskunalari va qurilmalarining tuzilishi va vazifalari. (balkalar, ustunlar, plitalar, ferma va boshqalar)
		Murakkab konstruksiyalarni o'rnatish bosqichlari va usullari.
		Metall, po'lat, yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarishda foydalaniladigan qurilmalar yordamida konstruksiyalarni vaqtincha mahkamlash usullari.

		<p>Metall, po'lat, yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatish ishlarni bajarishda ularni balandlikda va tor sharoitda ko'tarish, tushirish va o'rnatishda signal berish usullari.</p> <p>Kranlar, bloklar, lebyodkalar va ularning ishlash prinsiplari.</p> <p>Yuklarni to'g'ri bog'lash va ko'tarish usullari.</p> <p>Himoya vositalari (kaska, kamar, qo'lqop) qo'llash tartibi.</p> <p>Korroziyaga qarshi muhofaza va ishlov berish usullari.</p> <p>Balandlikda ishlashda xavfsizlik qoidalari.</p>
	<p><b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b></p>	<p>1. Binolar va inshootlar konstruksiyalarini o'rnatishga tayyorgarlik ishlarini bajarishda xodim ish hududini tekshirish.</p> <p>2. Asbob-uskunalarni tayyorlash, materiallarning holatini baholash va tayyorgarlik jarayonini to'g'ri tashkil etish bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi.</p> <p>3. Xavfsizlik talablari va texnik me'yorlarga qat'iy rioya qilgan holda ish jarayonining sifatli va xavfsiz amalga oshirilishi uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.</p>
<p><b>Texnik va/yoki texnologik talab</b></p>		<p>Po'lat va temir beton konstruksiyalar chizmalar asosida aniq o'lchamda kesilishi shart.</p> <p>Maxkamlash va izolyatsiya ishlari standartlarga muvofiq, germetik va mustahkam bajarilishi zarur.</p> <p>Asbob-uskunalar tekshirilgan va yaroqli holda foydalanilishi kerak.</p> <p>Barcha jarayonlarda shaxsiy himoya vositalari majburiy tarzda qo'llanilishi lozim.</p> <p>Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ishlari rejali ravishda va texnik talablarga asosan olib borilishi shart.</p>



Kasbning nomi:	Metall konstruksiyalarni yig'ish bo'yicha chilangar	
Mashg'ulot nomining kodi:	72141	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	<p>Ustoz rahbarligida amaliy o'quv jarayonidan o'tgan bo'lishi.</p> <p>Kamida 3–6 oylik ish amaliyotiga ega bo'lishi kerak.</p> <p>Metall konstruksiyalarni yig'ish ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.</p> <p>Qurilish ob'ektlaridagi xavfsizlik qoidalari, balandlikda ishlash va izolyatsiya materiallarini qo'llash bo'yicha tajribaga ega bo'lishi talab etiladi.</p> <p>Mahsus asbob-uskunalar bilan ishlash ko'nikmasi bo'lishi shart.</p>	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (yollash bo'yicha) va davriy tibbiy ko'rikdan, shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan o'tish.</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish talablari bo'yicha o'qitish va bilimlarni sinovdan o'tkazish, mehnatni muhofaza qilish ish joyida o'qitish va mustaqil ishlash uchun ruxsat olish.</p> <p>Xavfsizlik talablari bo'yicha o'qitish va bilimlarni sinovdan o'tkazishni yakunlash.</p> <p>Tegishli dastur bo'yicha yong'in xavfsizligi talablari va yong'in-texnik minimum bo'yicha o'qitish va bilimlarni sinovdan o'tkazish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	<p>1) boshlang'ich professional ta'lim</p> <p>2) o'rta maxsus ta'lim</p> <p>3) umumiy o'rta ta'lim</p>	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	-	
